

**OROL DENGIZINING QURISHI VA UNING YER SHARIDA TA'SIRI.**

**Azimov Baxtiyor Alim o'g'li**

[abaxtiyor940@gmail.com](mailto:abaxtiyor940@gmail.com)

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi.**

**Annotatsiya:** Orol dengizi qurishi oqibatida kelib chiqan ekalogiyaning yomonligi tufayli inson hayot omiliga ta'siri va shu yomon ekalogiyani qayta tiklash. Orol dengizini suv sathi pasayishi bilan yangi qoshilgan qirg'oq sathi 4 mln gektardan ortiq quruqlikni hosil qildi va u orolqum cho'llini hosil qildi. Buning oqibatida 20 asrning oxirida 3mln dan ko'p axoli yashaydigan xududda "orol fojiasi" deb atalgan global ekologik faolakat hosil qildi. U kelib chiqan global ekologik muamolarni inson yani ekologiya va bialogiya ximoyachilari sifatida ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** ekologik, global, kontinentallashib, iqlim, emfizema, astma.

**Аннотация:** Из-за плохой экологии, вызванной образованием Аральского моря, воздействием на жизненный фактор человека и восстановлением этой плохой экологии, с понижением уровня воды Аральского моря вновь добавленный береговой уровень создал более более 4 миллионов гектаров земли и стала Аральской пустыней. В результате этого в конце XX века на территории, где проживает более 3 млн человек, возник глобальный экологический феномен под названием «островная трагедия». Мы будем рассматривать глобальные экологические проблемы, вытекающие из него, как человеческие существа, т.е. защитники экологии и биологии.

**Ключевые слова:** экологический, глобальный, континентальность, климат, эмфизема легких, астма.

Orol dengizi o'rnida paydo bo'lgan orolqum mayda tuz va tuproq zararlari bilan qoplangan. Shamol esganda tuz va tuproq zarralaridan iborat changni havoga ko'tarilib uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan maydonlarning har gektariga 1 yil davomida 250 kg, ayrim xududlarda 500 kg gacha tuz, chang yog'iladi. Quruq dengiz tubidan 1 yil davomida 15 mln dan 75 mln gacha chang yog'ilishi mumkin. Tuzli chang to'foning kengligi 40 km ga, uzunligi 400 km ga yetadi. Tuzli chang orolqumdan 10lab xatto 100 lab km masofaga tarqalib tabbiy o'tloqlar, vohadagi ekinlar, bog'lar shaxarlar va qishloqlar ustiga yo'g'iladi. Orol changi xatto Tiyanshan va Pomir tog'lar cho'ildagi muzliklarga xam yetib borib, u yerdagi muzliklarni erishni tezlashtirib yuborgan. Orol dengizini quriy boshlashi iqlimga xam kata ta'sir ko'rsatgan, Iqlim yanada kontinentallashib qish xarorati o'rtacha 2

gradusga pasaydi yozning xarorati esa 2 gradusga ko'tarildi. Buning natijasida soviq kunlar erta tushib ekinlarni pishib yetilishi kechika boshladi. Orol bo'yida xudduda vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga xam ta'sir ko'rsata boshladi. Ekologik tanglik orol bo'yi tabiati va xayvonat dunyosiga xam katta ziyon yetkazdi. Suv zaxiralarni kamayishi va sho'rlashi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo'ladigan o'simlik turlari va sifati kamayib otloqlar maydoni deyarli 3 marta qisqargan. Amudaryo va Sirdaryo suvini kamayishi suv toshqinlarning bo'lmasligi daryolarning suv bosadigan qirchoqlarida yastanib yotadigan to'qaylaridagi xilma xil o'simliklarning qurib yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Ularni o'rmini qurg'oqchilikka chidamli yulg'un, shuvoq kabi cho'l o'simliklari egallamoqda. To'qaylarni yo'qolishi ko'plab o'simlik va xayvon turlarning kamayib ketishiga sabab bo'ldi. O'tgan yigirmanchi asirning ikkinchi yarmida Amudaryoning quyi qismidagi to'qaylarning buzulishi bilan bu joylarda yo'lbars, buxoro bug'usi yo'qolib ketdi. Orol bo'yidagi 60 dan ortiq qushlardan 10 ga yaqin qushlarning yo'qolib borayotgani va 42 dan ortiq tur noyob turga aylanyotgani xaqiqatdir. Sho'rlanishning keskin ortishi tufayli orol dengizi tobora o'lik dengizga aylanib bormoqda. Orol dengizi va orol bo'yi suv xavzalarida tarqalgan 28 ta tur baliqlardan 12 ta tur, jumladan Amudaryo kurak burun, orol mo'ylovdor baliq yo'qolib ketayotgan va noyob turga kiritilgan. Mazkur xolat nima uchun ro'y berdi? Suvdan nooqilona foydalanish oqibatida obixayot xajmi sezilari darajada kamayib ketdi. Bu esa tuz konsentratsiyasining keskin ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Dengizda xayot alomatlari deyarli qolmadi. Saxro esa dengizni siqib chiqardi. Har yili orolni qaqshagan tubidan qum va tuz zarralari shamol yordamida ko'tarilib olis mamlakatlar Afrika, Skandinaviya xam uchrayapti. Endi tuzli qum va bo'ronlar ekologiya xayot va inson salomatligiga qanday tasir etayotganini bir zum ko'z oldimizga keltiraylik. Masalan o'tgan yilda ular ekinlar xosilini nobud qildi, bu maxaliy axoli aynan fermerlarning xayot sifatiga xam ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Bunday ekologik sharoit inson xayotiga xam o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Aholi o'rtasida vujudga kelgan kasalliklari qon tomir, oshqozon ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sill, astma, bronxit) ko'paydi. Xudduda kam qonlik kasallik o'tgan 60 yilga nisbatan deyarli 20 marta oshgan. Shulardan eng ko'p tarqalgani surukali bronxit kasalligi; o'tkir bronxitning tez tez qaytalanib turishi va shuningdek, doim chang yoki tutun aralashgan havo bilan nafas olganda qayta rivojlanadi. Surunkali bronxitning kelib chiqishiga va mustaqil davom etishiga yurak paroklari, emfizema va boshqalar o'pka va bronxlar devorida qonning surunkali dimlanib turishi sharoit tug'diradi. Bronxial Astma; nafas siqilishi, nafas chiqarishning qiyinlashishi xurujlari bilan xarakterlanadi. Surunkali kasallik bo'lib baxor va qishda qo'zg'alib turadi. Infeksiyon- allergik kasallik guruxiga kiradi. Kuzda

VOLUME-1, ISSUE-3

shamollashdan, baxorda esa allergiyada qo'zg'aladi. Kasallikni allergenlar: terak puxi, gular, changi, hayvonlar yungi va boshqalar qo'zg'atadi. Kasallikning xurujlari mayda bronxlar mushaklarning spazmasi tufayli paydo bo'ladi. Bunda bronxlarning shilliq pardasi shishinqiraydi, ularni ichida esa quyuuq yopishqoq shilliq modda to'planadi. Shuni xam aytishimiz keraki bu kasaliklarni barchasi shu muamolar bn bevosita bogliq deb o'ylayman. O'zbekiston Prezidenti BMT Assambleyasining 72-sessiyasida dunyo hamjamiyati e'tiborini yana bir bor Orol hududidagi halokatli vaziyatga qarataganidan barchamizni xabarimiz bor. Shundan kelib chiqadiki bizo'zimizdan keying avlodlarga bu ekologik muamoni shundayligicha emas balki boshlangich bosqichlarni boshlab otishimiz kerak. Biz O'zbekiston tashabbusini qo'llab quvvatlagani uchun BMT raxbaryatidan xususan ulkan xissasini qo'shgan shaxsan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish hamda BMT ning boshqa inistitutlari Norvegiya, Yaponiya, Nigerya kabi hamkor davlatlardan minnatdormiz. Ayni chog'da Norvegiya hozirni o'zidayoq Trast fondiga 1,2 million dollar miqdorda xissa qo'shdi. Aloxida ta'kidlash joiz, bu O'zbekistonning emas, balki mintaqaning ekskuliziv loyihasidir. Orolbo'yining yetti million aholisi-O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston fuqorolari mazkur fond faolyatidan sezilarli natijaga ega bo'ladilar. Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosidagi trast fondi harakatlarining yagona va kompleks stirategiyasining ishlab chiqarish maqsadida ham mamlakatlari sa'y-harakatlarni, ham xalqaro dasturlarni birlashtirish yo'lidagi to'g'ri intilishdir. O'zbekiston unga milliy dasturlarni amalga oshirish orqali hissa qo'shadi. Yaqinda Prizdentimiz Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'istonga ta'shrif buyurdi. Yakunida umumiy qiymati 1,5 milliard dollirlik o'nlab loyixalarni amalga oshirishni ma'lum qildi. Ular iqtisodiy rivojlantirish, ko'plab ish joylarni barpo etish, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash kabi sohalarga qaratilgani bilan dolzarbdir. Boisi bugungi kunda Orolbo'yi aholisi aynan mana shu sixalarga muxtoj xisoblanadi. Onalik hamda bolalikni muxofaza qilish, orol fojiasi tufayli kelib chiqan kasalliklarga qarshi kurashish va albatta ekalogik vaziyatni barqarorlashtirish uning yanada yomonlashib ketishni oldini olish shular jumlasidandir. Biz Orol dengizini qaytarib bo'lmasligini yaxshi tushunamiz ammo odamlar ketmagan va biz ular xaqida qayg'urishimiz zarur. Respublikada bir vaqtlari yo'qotilgan qator xo'jalik faolyati turlarni bosqichma bosqich tiklash bo'yichadastur ro'yobga chiqarilyapti. Orolbo'yida sun'iy ko'llar hosil qilish orqali baliqchilinni yo'lga qo'yish bunga misol bo'la oladi. Qolaversa O'zbekiston eng ko'p suv talab qiladigan maydonlari keskin qisqardi. So'ngi yillarda yurtimizda bir gektar yerda suvdan foydalanish miqdori ikki barbar kamaytirildi. O'rmonzorlar yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda . Bu xam ma'lum miqdorda dengizda suv yo'qotilishi me'yorning saqlashga yordam beradi .

**Xulosa:** Xalqlarning farovon yashashi va iqtisodiy taraqqiyotida, hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini yo'lida atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari muhim o'rin tutadi. Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samarasi kelgusi 10 yillikda ko'rinadi deb o'ylayman. Shunday samarali ishlar tashkil qilib kelinayotgan bo'lsada, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik vaziyatni yaxshilash va oqibatlarini kamaytirish borasida bir qancha tadbirlar amalga oshirilish ekologik vaziyatni yanada tez sur'atlarda yaxshilanishiga xizmat qiladi deb hisoblayman. Bunday tadbirlarga qonunchilikni takomillashtirish, suvdan tejamli tarzda foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqish, yangi to'qayzorlar va o'rmonlar tashkil qilish, sho'rga chidamli o'simlik turlarini ko'paytirish, bioxilma-xillikni ta'minlash va boshqa tadbirlar kiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

- Haydarov, Hojimatovlar 1976 „O'zbekiston o'simliklari”
- Xalmatov, Xarlamovlar 1981 Lechevnie svoystva pishevix rasteniy-T
- Yusupov 1981 „Anor qalamchalaridan ko'paytirish” Maqola
- O'zbekiston milliy ensiklopediya 2000-2005
- Qizi, Hamidova Dilrabo Chori, et al. "JASMIN (JASMINUM) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 53-56.
- Qizi, Jo'Rayeva Go'Zal Davlat, Shaymanov Sherzod Kamol O'G'Li, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "GO 'ZAL KATALPANING MARFOLOGIYASI VA MANZARAVIYLIK XUSUSIYATLARI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 46-49.
- Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "PISTA (PISTACIA) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 36-38.
- Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KIVI O'SIMLIGI HAQIDA." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 12-17.
- Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "QAYRAG 'OCH (ULMUS) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 32-35.

VOLUME-1, ISSUE-3

- Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.11 (2022): 100-104.
- Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
- Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 209-212.
- Abdukarimovna, Abdukarimova Mamlakat, Kulmurotova Aziza Muhiddinovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "TOMATO PESTS." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.2 (2023): 427-430.
- Xayitovna, Pirimqulova Muhabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Types of corn grown in Uzbekistan and their peculiarities." *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences* 3 (2022): 59-63.
- Qizi, Xushvaqtova Muhlisa Nuriddin, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "ACHCHIQ BODOM TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 141-149.
- Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek. "ZIRK (BERBERIS) TURKUMI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 690-694.
- Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "ZARANG (ACER) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 6-11.
- Xudaynazarovna, Ashurova Muxlisa, Muxammadiyeva Gulchiroy Raxmonovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "O'G 'ITLARNING TURLARI-XUSUSIYATLARI, TUPROQ STRUKTURASIGA VA O'SIMLIK HOSILIGA TA'SIRI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 204-208.